


# *Korrupsiya*

---



*Jahon bo‘ylab korrupsiyani idrok etish ko‘rsatkichi (Transparency International, 2010-yil).*

**Korrupsiya** (lot. *corrumpō* — „buzish“, „aynish“) biror mansabdor shaxsning qonunchilikka va axloqqa zid ravishda o‘zining boshqaruv vakolatlari va huquqlaridan shaxsiy manfaatlar maqsadida foyda olishidir. Atama odatda

siyosiy apparatga nisbatan ishlatiladi.

Aksariyat davlatlarda korrupsiya jinoyat sifatida qaraladi.

**Korrupsiya** (lot. corruptio – aynish, poraga sotilish) – mansabdor shaxsning o‘z mansabi bo‘yicha berilgan xuquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste‘mol qilishidan iborat amaliyot.

Mansabdor shaxslarni sotib olish, ularning poraga sotilishi qam K. deyiladi. K. davlat apparati va parlament faoliyatida ayniqsa, avj oladi.

Saylanadigan lavozimlarga nomzodlar saylov kampaniyasini o‘tkazish harajatlarini ko‘tarish K. ko‘rinishlaridan biridir (saylangan kishi turli imtiyozlar,

yordam, xizmatlar ko'rsatib "o'z qarzini" qaytaradi). Aksariyat K. lobbizm (monopoliyalarning qonunchilik organlari va amaldorlarga tazyiq o'tkazish bilan shug'ullanadigan muassasa va agentlari tizimi) bilan bog'langan. Xalqaro darajada 1970-yillarda Yaponiyaga samolyotlar sotishda kompaniya tomonidan oliy davlat amaldorlarini sotib olish bo'yicha "Loksid ishi" eng yirik K. ko'rinishlariga misol bo'ladi. Porani xaspo'shlash uchun yirik bitishuvlarda ko'proq "xizmat haqi" to'lash amaliyotidan foydalaniladi.<sup>[1]</sup>

Korrupsiyaning eng keng tarqalgan

turlariga poraxo'rlik, firibgarlik,  
tovlamachilik, nepotizm kiradi.

Makroiqtisodiy tadqiqotlarga binoan,  
korrupsiya iqtisodiy o'sish va  
taraqqiyotga xalal beruvchi eng katta  
omildir.<sup>[2][3]</sup>

## Manbalar

1. O'zME. *Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil*
2. *Bardhan P. Corruption and development // Journal of Economic Literature. — 1997. — Vol. 25. — P. 1320. [1]. (ingl.)*
3. *Tanzi, V. Corruption, Governmental Activities and Markets // IMF*

*Working Paper 94/99. – International Monetary Fund, Washington, DC. – 1994. [2]. (ingl.)*

## Navolalar

- Коррупция – тараққиётга тўсиқ ,  
*Inson va Qonun*
- Коррупция, унинг олдини олишда антикоррупциявий экспертизанинг ўрни , *huquqburch.uz*

*Iqtisodiyot va moliyaga oid ushbu maqola chaladir. Siz uni boyitib, Vikipediyaга yordam berishingiz mumkin.*

*Siyosatga oid ushbu maqola chaladir. Siz uni boyitib, Vikipediyaga yordam berishingiz mumkin.*

*Ko'proq o'rganish*

*Ushbu maqolani yozishda O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan foydalanilgan.*

["https://uz.wikipedia.org/w/index.php?"](https://uz.wikipedia.org/w/index.php?)

`title=Korrupsiya&oldid=1964012 "`

`dan olindi`

---

**Last edited 2 years ago by YiFeiBot**

Matndan CC BY-SA 3.0 litsenziyasi bo'yicha foydalanish mumkin (agar aksi ko'rsatilmagan bo'lsa).